

da kórkem, de texnikalıq táreplerden sapalı etip jazıp alıwdan ibarat. Fonogrammaning sapası sonday bolıwı kerek, film qayta kórsetiw etilgende sol dáslepki Súwretke alınğan waqıttaǵı dáslepki sestúń tábiy sapası, shıǵırı sıra

buzılmastan saqlanmoǵı kerek. Sonday eken, ses rejıssyori (Ses rejıssyori) - filmniń ses tárepten bezalishi hám sestúń texnikalıq sazlıǵına juwapker qánige bolıp tabıladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. [John Purcell](#). Dialogue Editing for Motion Pictures: A Guide to the Invisible Art. // United Kingdom, Oxford, [Taylor & Francis Ltd](#) Focal Press, 2007.
2. Amanmuradov Sh. Muzikal'noe I shumovoe oformleniye. Uchebnoe posobiye. Toshkent 2019.
3. Averbax YE. Rojdeniye zvukovogo obraza. – M., 1998.
4. Voskresenskaya I.N. Zvukovoye resheniye filma. M., 1978.
5. Dinov V.G. Zvukovaya kartina: Zapiski o zvukorejissure. SPb., 2002.
6. Lissa 3. Estetika kinomuziki. M., 1970.
7. Sokolov A. Montaj. Televideniye, kino, video. Uchebnik. Chast 3 – M., 2003.
8. Uayatt X., Emiyes T. Montaj zvuka v tele – i kinoproizvodstve. Znakomstvo s texnologiyami i priyomami. Uchebnoye posobiye. M., 2006.
9. Shilova I.M. Film i yego muzika. M., 1973.

REZYUME. Maqalada ses rejıssyorlarınıń filmlerdi dawıslastırıw, dublyaj qılıw processinde aktyorlar menen islesiw jolları, processtegi ushırasatúǵın mashqalalar hám oǵan sheshim tabıw jolları haqqında sóz etiledi.

РЕЗЮМЕ. В статье обсуждаются методы работы звукорежиссёров с актёрами в процессе озвучивания и дубляжа фильмов, проблемы, с которыми они сталкиваются в процессе, и пути их решения.

SUMMARY. The article discusses the methods of sound engineers working with actors during dubbing and dubbing, the problems encountered in the process, and ways to solve them.

SHOHIDA UZOQAVA IJROSIDAGI KINOFILMLARDA XARAKTER YARATISH MASALALARI VA IFODA MAHORATI

Qodirov Ulug'bek Nosir o'g'li – aktyor

O'zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi aktyori

Tayanch so'zlar: aktyor, rejıssiyor, montaj, kadr, uslub, teleserial.

Ключевые слова: актёр, режиссёр, монтаж, кадр, стиль, телесериал.

Key words: actor, director, editing, frame, style, television series.

KIRISH. Zamonaviy o'zbek san'ati, ayniqsa teatr va kino sohalarida, aktyorlik mahoratining yangi bosqichga chiqishi bilan ajralib turadi. Shohida Ismoilova - zamonaviy o'zbek san'atida o'zining betakror iste'dodi, chuqur obraz yaratish mahorati va o'ziga xos aktyorlik uslubiyati bilan ajralib turadigan ijodkordir. Uning teatr va kinodagi faoliyati nafaqat individual aktyorlik mahorati, balki milliy mentalitet, madaniy-estetik qadriyatlar va dramatik strukturaning o'zaro uyg'unligi mavjuddir. Bu jarayonda ayrim san'atkorlar ijodi o'ziga xos badiiy maktab, aktyorlik estetikasining timsoliga aylanmoqda.

Shohida Ismoilova ana shunday aktirisalardan biri bo'lib, uning obraz yaratishdagi uslubi, hissiy ifodadagi chuqurligi va sahnaviy mavjudligi o'zbek milliy aktyorlik maktabining yetuk

namunasi sifatida baholanadi. Shohida Ismoilova o'z ijodini klassik teatr an'analari asosida boshlab, keyinchalik zamonaviy kinodagi murakkab obrazlarni mahorat bilan jonlantirgan. Uning teatr sahnasidagi rollari – o'zbek va jahon dramaturgiyasi asosida sahnalashtirilgan spektakllarda ona, muallima, fidoyi ayol kabi timsollarni o'zida mujassam etadi. Ismoilova ko'plab rollarida o'zbek ayolining ichki dunyosini – mehr, sabr, kechirim, fidoyilik va botinily ruhiy og'riq orqali ochib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

U yaratgan onalar, xotin-qizlar obrazi - klassik "mukammal ayol" emas, balki hayotdagi murakkab kechinmalarning ifodasi sifatida realistik obrazlardir. Masalan, "Faryod" filmidagi

ona, yoki “Charxpalak” teleserialidagi Mastura - ijtimoiy bosim, farzandlar taqdiri va oilaviy ziddiyatlar fonida o‘z ichki kuchini saqlab qolgan obrazlardir. Bu rollar orqali aktrisa obraz va ijtimoiy ongndagi ayol timsolini o‘zgartiradi. Shohida Ismoilova obrazlarida ayol – jamiyatda faqat mehr va fidoyilik manbai emas, balki axloqiy tanlovlar qiluvchi, shaxsiy pozitsiyaga ega kuchli subekt sifatida talqin etiladi. Shohida Ismoilovanning ijrosida aktyorlik vositalari – mimika, tana tili, pauza, ovozi ohangi, ko‘z ifodasi – barchasi funksional uyg‘unlikda ishlaydi. Har bir sahna, har bir harakat tasodifiy emas; ular psixologik kontekstga bog‘langan.

Uning sukunatdagi gaplari, sekinlikdagi kuch, ko‘zdagi iztirob tomoshabinni dialoglarsiz ham ichki voqealarga jalb etadi. Bu yondashuv estetik jihatdan minimalist bo‘lsa-da, hissiy jihatdan maksimal kuch beradi. Teatrda jonli ifoda, kino sahnalarida esa kamera orqali yaqin dramaturgiya yetkaziladi. Ismoilova ikkala formatda ham o‘z ifodaviy imkoniyatlarini mukammal darajada moslashtira olgan ijodkoridir. Ayniqsa, kinematografik sahnalarda uning chuqur hissiy nigohlari va sezilar-sezilmas tana harakatlari kamera orqali ruhiy intensivlikni oshiradi. Uning ijodi bugungi o‘zbek san‘atida milliy mentalitet, estetik qadriyatlar, dramaturgiya tuzilma va aktyorlik yondashuvlarining uyg‘unlashgan shaklidir. Ushbu tadqiqotda aktrisaning teatr va kino sahnasidagi rollari orqali uning badiiy dunyoqarashi, aktyorlik texnikasi va obrazlarni ifodalash uslubi tahlil etiladi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Shohida Ismoilovanning teatr san‘atidagi eng muhim jihati - bu obrazning psixologik chuqurligini ochib berishdagi mahoratidir. U yaratgan sahna qahramonlari ko‘pincha murakkab ichki kechinmalar, ijtimoiy ziddiyatlar va shaxsiy azoblar bilan yashaydigan obrazlardir. Aktrisa bu jarayonda Stanislavskiy tizimining “holatni boshdan kechirish” tamoyillariga yaqin yondashadi. U ijro etgan rollarda faqat tashqi harakatlar emas, balki ichki monolog, hissiy tus va ruhiy o‘zgarishlar markaziy o‘rin egallaydi. Ismoilovanning teatr sahnasidagi obrazlarida realizm bilan poetiklik uyg‘unlashgan. Uning ijrosida shunchaki voqelikni takrorlash emas, balki uni chuqurroq, hayotiyroq tasvirlashga intilish seziladi. Bu esa aktrisaning dramaturgiya materialni tahlil qilish va sahnada yashash bo‘yicha mustahkam professional tayyorgarligidan dalolat beradi. “Ona” obrazi doimiy ramziy va estetik ahamiyat kasb etgan bo‘lib, u xalq ruhiyati, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy ongning in‘ikosi sifatida namoyon

bo‘ladi. Bu obraz ko‘pincha faqat g‘amxo‘rlik emas, balki ma‘naviy tayanch, sabr, fidoyilik va botirlik timsoli sifatida shakllanadi. Shohida Ismoilova o‘zbek ekran san‘atida ana shu “ona” obrazini turfa badiiy shakllarda, gavdalantira olgan aktyoralardan biridir. U yaratgan ona obrazlari bir-biridan farqli ijtimoiy, va madaniy kontekstlarda ochiladi, ammo barchasida ayollik, g‘amxo‘rlik va iztirob uyg‘unlashgan badiiy timsol sifatida diqqatga sazovordir. Xususan, Mastura obrazi - o‘zbek ayolining ichki iztiroblari, jamiyatdagi murakkab ijtimoiy o‘zgarishlarga bardosh berayotgan ruhiy holatining yuksak badiiy ifodasidir. Shohida Ismoilova bu rol orqali ona qiyofasining ikki qirrali - tashqi ko‘rinishda sabrli, ammo ichki olamida mo‘rt va iztirobga to‘la jihatlarini yoritadi. Aktrisa obrazni yaratishda ko‘proq pauzalar, nigohlar va ovozdagi titroq orqali ruhiy o‘zgarishlarni ochib beradi. Mastura o‘z farzandlariga mehrlil, lekin o‘zini unutgan ayol sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat orqali aktrisa o‘zbek ayolining o‘zligini jamiyat ichra qanday yo‘qotayotganini falsafiy darajada aks ettiradi. Bu obraz orqali Shohida Ismoilova ayollik va onalik orasidagi nozik chegara, fidoyilik va o‘zlik yo‘qolishi muammosini tasvirlaydi. Onaning harakatlarida ichki halovatdan ko‘ra, ijtimoiy normani bajarayotgan subyekt ko‘rinadi.

Kino san‘atida Shohida Ismoilovanning ijodi yanada ko‘p qirrali ko‘rinadi. Kamera qarshisidagi faoliyati sahnadagidan farqli o‘laroq, nozik mimikalar, pauza va tovush balandligidagi o‘zgarishlar orqali obrazning ichki dinamikasini ochib berishga qaratilgan. U o‘z rollarida hayotiylik, tabiiylik va samimiyatni birlashtira oladi, bu esa zamonaviy o‘zbek kinosining realistik tendensiyalariga mos tushadi. Kino obrazlarida u ko‘proq ijtimoiy va axloqiy masalalarni ko‘taradi. Ayniqsa, ayol taqdirining turli jabhalarini, jamiyatdagi roli va insoniylik mezonlarini aks ettirishda Ismoilova o‘ziga xos aktyorlik poetikasini yaratgan. Uning ijrosi orqali tomoshabin nafaqat hodisalarni, balki ularning sabab va oqibatlarini ham chuqur his qiladi.

Shohida Ismoilovanning san‘atdagi o‘rni o‘zbek madaniyatidagi an‘anaviy va zamonaviy unsurlarni uyg‘unlashtira olgan ijodkor sifatida belgilanishi mumkin. Uning obrazlari ko‘pincha milliy urf-odatlar, qadriyatlar, ayollik nafasi bilan sug‘orilgan bo‘lib, bu orqali u o‘z ijodini universal insoniy muammolar bilan bog‘laydi. Shohida Ismoilova - teatr va kino san‘atida o‘z maktabiga ega bo‘lgan aktyoradir. Uning obraz yaratishdagi psixologik yondashuvi, har bir rolga individual estetik tahlil bilan yondashishi,

dramatik voqelikni ichki kechinmalar bilan uyg'unlashtirishi uni o'zbek sahna san'ati va kinematografiyasining yetuk vakiliga aylantirgan..

Aktrisa har doim ijro etgan rollarni o'zi ovozlashirishni istaydi. Shu boisdan ham aktrisa tez-tez dublyaj studiyalariga kelib turadi. "Yoshligimda mahallamiz televideniyege yaqin bo'lgani uchun to'g'ridan to'g'ri bo'ladigan efirlarga mahallamizdagi kichik yoshdagi tengqurlarimni taklif qilishardi. Ammo ichkariga hammani ham kiritaverishmasdi. Oramizdan ayrimlarni tanlab ichkariga olib kirib ketishardi. Osha paytda meni ham tanlab olishlarini, ichkarida nimalar bo'layotganini ko'rishni juda istardim. Biroq ko'pincha men tashqaridagilar orasida qolib ketardim. Hafa bo'lganimdan yig'laguday bo'lib uyga qaytardim. Buni qarangi, o'sha paytlar shunchalar qattiq xohlaganimdanmi, yoki yaratganning marhamati va mehnatlarimning mahsulimi bugun mana shu eshikdan bemalol kirib chiqqa olaman. Ammo har gal eshik oldiga kelganimda yoshligim esimga tushib, ko'zimga yosh keladi". [1]

Dublyaj sohasida ustozlar an'anasi ular bergan ovoz hali hanuzgacha quloqlarda aranglaydi. Ovozlarini biror filmida eshitsak, bexosdan yuzimizga tabassum yuguradi. Dublyaj ustalaridan Hamza Umarov, Nabi Rahimov, Mukambar Rahimova singari tajribali ustozlardan saboq olgan. "Ba'zan ustoz aktyorlar o'z rollarini ovozlashirib bo'lgach o'tirib dam olardi, ammo Hamza aka hech dam olmasdilar. Bizni yonimizda turib yelkamizdan qoqib qo'yardilarda, "gapir, mana shu joyda mana bunday gapir" deb o'rgatib, dalda berib turardilar."

Faqatgina bir safar aktrisaga "O'tgan kunlar" filmidagi Hushro'y roli uchun O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Gavhar Zokirova ovoz bergan. Sababi, rejissyor Melis Abzalov Shohida Ismoilova biroz yumshoq xarakter egasi bo'lganligi uchun ovoz tushmay qoladi deb o'ylagan. Ammo kinoni ko'rgandan keyin Shohida Ismoilovada "O'zim ovoz bersam bo'larkan..." deb afsus qilgan. [2]

Aktrisaning fikriga ko'ra "agar aktyor rolni zo'r chiqargan bo'lsa, ovozni ham yetkazib bera oladi." Bundan tashqari aktrisa bir qator meksika kino ijodkorlari tomonidan ishlangan seriallarda ham ko'plab qahramonlarni o'zbek tilida so'zлата olgan. Xususan, "Muhabbat mojarosi" teleserialidagi bosh qahramon Palomaning onasi Chayo hamin aynan Shohida Ismoilova nafasi orqali o'zbek honadonlariga kirib borgan.

Shohida Ismoilovani tinib-tinchimaydigan, haqiqiy fidoiy san'atkor desak yanglishmagan bo'lamiz. Hali teatr, hali tasvirga olish

maydonchasi-yu televideniyege yugurib charchamagan aktrisa O'zbek Milliy akademik drama teatri qoshida "Tasanno" bolalar teatr studiyasini tashkil etib, unga rahbarlik qilib kelmoqda. Teatr studiya 2010-yilda tashkil qilingan bo'lib, ayni kunda 4 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan iqtidorli bolalar aktyorlik mahorati sirlarini o'rganib kelmoqdalar. Studiyaga tashrif buyurgan bolalarni aktrisaning o'zi imtixon qilib qabul qiladi.

"Odatda teatr studiyamizga har hil yoshdagi bolalar kelishadi. Ularni yoshiga qarab vazifa beramiz. Yosh bolalardan dastlab ota-onasi haqida bog'chadagi o'rtoqlari haqida so'raymiz. Ularni tasavvuri haqida bilish uchun rasmlar chizdirib ko'ramiz, yoki o'zi yoqtirgan biror hayvonni harakatlarini o'xshatib berishini so'raymiz. Kattaroq yoshli bolalardan esa murakkabroq vazifalarni bajarib berishlarini so'raymiz". [3]

Aktrisa bolalar bilan ishlash jarayonida butunlay boshqa insonga aylanadi. Sahnada kimningdir opasi yoki kelini, ekranda kimningdir mehribon onasi bo'lsa, bu yerda u yosh bolaga aylanadi. Bolalar bilan ishlash, ularning psixologiyasini tushunish uchun ularning do'stiga aylanishga intiladi. Ulardagi ichki "men"ini o'ldirib qo'ymaslikka, uni bitta qoligxga tushib qolmasligiga turtki beradi. Ayni paytda studiyada 70 dan ziyod iqtidorli bolalar bo'lib ular yoshiga qarab bir nechta guruhlarga ajratilgan. Yil davomida ularga aktyorlik mahorati, sahna nutqi, sahna harakati, raqs, vokal darslari yo'lga qo'yilgan bo'lib, institutni bitirgan mahoratli yosh aktyorlar bilan birgalikda o'rgatib boriladi.

Shohida Ismoilova studiyadagi bugunga qadar bo'lgan faoliyati davomida o'quvchi bolalar bilan hamkorlikda "Qorboboni qutqaring", "Shelkunchik", "Bayram sarguzashtlari", "Elchigul" "Oltin kalitcha", "Qizil shapkacha", "Yangi yil ertaklari" nomli spektakllar sahnalashtirib, teatr mutaxassisleri va tomoshabinlar olqishiga sazavvor bo'li kelmokda. Xususan, ular tomonidan sahnalashtirilgan bolalar spektakli "Oltin kalitcha" 2014-yil kirib kelishi arafasida sahnada namoyish etildi. Bu spektakl "Buratino" ertagi asosida sahnalashtirilgan. Pesani aktrisaning o'zi tarjima qilgan. Hammamizga ma'lumki, ertak bo'yicha yakunda eshik ortidan boylik topiladi. Ammo Shohida Ismoilova uni boshqacharoq talqinda namoyish etdi. Ya'ni spektaklda oltin kalitcha bilan ochiladigan eshik ortidan oltin emas kitob, ya'ni ertak qahramonlarining tasavvuridagi baxt kitobi topiladi. Uni ertaklar mamlakatining shahzodasi qo'riqlab o'tirgan bo'ladi. Eshik ochilgankda shahzoda bolalarga "men sizlarni kutib

turgandim” deydi. Sandiqchani ichida nima bor hozir ko‘raman faqat uni eng odobli bola ocha oladi deydi. O‘sha ko‘ngli pok bola Buratino edi. Ular sandiqchani ochishadi va uning ichidan nur taralib, chiroyli kitob chiqadi. Atrofdagi bolalar esa demak kitob oltindan ham qimmatliroq narsa ekan degan fikrga kelishadi.

Spektaklni sahnada namoyish etish jarayonida har bitta rolga uchta, to‘rttadan dublyor tayyorlangan bo‘lsa, ularning har qaysisi bir-birini takrorlamagan o‘ziga xos ijroni namoyish etishdi. Aslida Shohida Ismoilova teatr studiyasidagi bolalarga dars berishdan asosiy maqsadi ham bolalarning har birida o‘z ijodiy uslubini shakllantirish. Aktrisa repititsiya davomida har bir bolaning libosi, grimi, sahnadagi harakatlari ustida alohida ish olib boradi.

Aktrisa sahnalashtirgan barcha spektakllar bolalarga qaysidir ma‘noda saboq bo‘ladi. Ularda ezgulik, hamjihatlik halollik, mehnatsevarlik va to‘griso‘zlik kabi ezgu fazilatlar uyg‘otadi. Shohida Ismoilova zamonaviy o‘zbek aktyorlik maktabining yetuk vakili, milliy mentalitet va estetik yondashuvlarning sintezida o‘ziga xos ijodiy olam yaratgan san‘atkordir. Uning sahnadagi va ekrandagi rollari chuqur ruhiy kechinmalar, hissiy intensivlik va dramatik struktura orqali tomoshabinni nafaqat ko‘rishga, balki hissiy anglashga chorlaydi.

Shohida Ismoilovanning ijodi – bu o‘zbek ayolining timsolida xalqning axloqiy portreti, san‘at orqali jamiyat bilan muloqot qilish vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov M. O‘zbek teatri an‘analari.-T.: G‘afur G‘ulom., 1976. Qodirov M. An‘anaviy teatr dramaturgiyasi.-T.: Yangi asr avlodi, 2006.
2. Tursunov T.T. Sahn va zamon.-T.:Yangi asr avlodi., 2007. Tursunov T.T. XX asr o‘zbek teatri tarixi (1900-2007). T.: Art-press, 2010.
3. Bayandiyev T., Ikromov H., Ahmadjonova M. O‘zbek teatrida milliy g‘oya talqini. -T.: Fan va texnologiya, 2009.
4. Qodirova D. XX asr o‘zbek teatri ssenografiyasi. -T.: San‘at, 2009. Abdusamatov X. Drama nazariyasi. -T.: G‘afur G‘ulom, 2000.

REZYUME. Ushbu maqolada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Shohida Ismoilovanning kino san‘atidagi rollari tahlil qilinib, u yaratgan obrazlar orqali aktyorlik mahoratining chuqur qatlamlari yoritib beriladi. Maqolada aktrisaning ijro qilgan rollariga psixologik yondashuvi, xarakter yaratishdagi uslublari hamda milliy va zamonaviy talablarga mos obrazlar ifodasi o‘rganiladi. Bundan tashqari, u ijro etgan rollarning tomoshabin ongiga ta‘siri va ularning kino san‘atidagi o‘rni haqida ilmiy xulosalar chiqariladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются роли заслуженной артистки Узбекистана Шохиды Исмоиловой в киноискусстве, раскрываются глубокие слои её актёрского мастерства через созданные ею образы. В статье рассматриваются психологический подход актрисы к исполнению ролей, её методы создания характера, а также выражение образов, соответствующих национальным и современным требованиям. Кроме того, делаются научные выводы о влиянии её ролей на сознание зрителей и о месте этих ролей в искусстве кино.

SUMMARY. This article analyzes the film roles of the Honored Artist of Uzbekistan, Shohida Ismoilova, revealing the profound layers of her acting skills through the characters she has created. The study examines the actress’s psychological approach to her performances, her methods of character development, and the expression of images that reflect both national and contemporary artistic standards. Furthermore, the article draws scientific conclusions about the impact of her roles on the audience’s perception and their significance within the art of cinema.